KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

NOYABR, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
https://konferensiyalar.com

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil).– 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr

Mas’ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya
Mazkur to‘plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” mavzusidagi XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan.
Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta’lim o‘qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHISINING KASBIY-SUBYEKTIV POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Temirova Shoxsanam Komilovna
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti (PhD),
Email: shtemirova1996@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-0662-8610
Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Tezisda pedagogik amaliyot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-subyektiv pozitsiyasi rivojlanadigan va namoyon bo‘ladigan asosiy davr sifatida ko‘rib chiqiladi. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish, talabaning o‘zi ko‘rgan o‘qituvchilarni takrorlash tendensiyasi va mentorlikning cheklangan imkoniyatlari muammo sifatida tahlil qilinadi. Shular asosida CLIL elementlarini o‘z ichiga olgan amaliyotni tayyorlov, o‘tkazish va refleksiya bosqichlari orqali tashkil etish taklif etiladi.

Kalit so’zlar: pedagogik amaliyot, kasbiy-subyektiv pozitsiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, CLIL, mentorlik, refleksiya, kasbiy o‘zlik.

DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL-SUBJECTIVE POSITION OF THE FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHER IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL PRACTICE

Temirova Shoxsanam Komilovna
Doctoral student (PhD) of the Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Samarkand, Uzbekistan

Annotation. In the thesis, pedagogical practice is considered as the main period in which the professional-subjective position of the future English language teacher develops and manifests itself. The gap between theory and practice, the tendency of the student to repeat the teachers he has seen, and the limited opportunities of mentoring are analyzed as problems. Based on these, it is proposed to organize the practice including CLIL elements through the stages of preparation, transfer and reflection.

Keywords: pedagogical practice, professional-subjective position, future English teacher, CLIL, mentoring, reflection, professional identity.

DOI: https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i21/n20

Kirish. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda (2020) pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ta’lim sohasidagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligining sifati esa eng avvalo pedagogik amaliyotda ko‘rinadi. Auditoriyada talaba o‘qituvchi kasbini o‘rganadi, amaliyotda esa birinchi marta haqiqiy o‘quvchilar oldida qaror qabul qiladi, xatosi uchun javob beradi va o‘zini o‘qituvchi sifatida his qila boshlaydi. Shu ma’noda amaliyot kasbiy-subyektiv pozitsiyani, ya’ni o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatiga faol, mas’uliyatli va ongli munosabatini rivojlantirish uchun eng qulay davrdir. Biroq bu imkoniyat amaliyot to‘g‘ri tashkil etilgandagina ro‘yobga chiqadi. Tezisning maqsadi pedagogik amaliyotni kasbiy-subyektiv pozitsiyani rivojlantirishga yo‘naltirish yo‘llarini asoslashdir.

Asosiy qism. Pedagogik amaliyot bilan bog‘liq muammolar xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. *Birinchi muammo* – nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish. F. Korthagen va J. Kessels (1999) talabalar universitetda o‘rgangan nazariyani maktabdagi vaziyatlarga ko‘chira olmasligini ko‘rsatib, nazariyani amaliy tajribadan keyin va u bilan bog‘liq holda o‘rganish g‘oyasini ilgari surgan. K. Zeichner (2010) ham universitet kurslari bilan maktabdagi amaliyot ko‘pincha bir-biridan ajralgan holda olib borilishini qayd etadi va universitet, maktab hamda talabani birlashtiruvchi yangi hamkorlik makonini yaratishni taklif qiladi.

Ikkinchi muammo – talabaning o‘zi ko‘rgan o‘qituvchilarni takrorlash tendensiyasi. D. Lortie (1975) bo‘lajak o‘qituvchilar ko‘p yillik o‘quvchilik tajribasi davomida o‘qituvchi faoliyatini faqat tashqi tomondan kuzatishini “kuzatish orqali shogirdlik” deb atagan. Natijada talaba amaliyotda o‘zining ongli tanlovi asosida emas, balki o‘zi o‘qigan darslarni takrorlab ishlaydi. Bu esa kasbiy-subyektiv pozitsiyaga zid holatdir. Ayniqsa CLIL kabi talabaning o‘zi maktabda ko‘rmagan yondashuvlarda bu muammo yaqqol seziladi: talaba mazmun va tilni integratsiyalash namunasini ko‘rmagani uchun ko‘pincha grammatika va lug‘atga yo‘naltirilgan an’anaviy darsga qaytadi.

Uchinchi muammo – mentorlikning cheklangan imkoniyatlari. A. Hobson va hamkasblari (2009) mentorlik bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, mentorlik yangi o‘qituvchiga sezilarli ko‘mak berishi mumkinligini, biroq mentor tayyorgarligi va vaqt yetishmasligi kabi omillar uning samarasini kamaytirishini ko‘rsatgan. Agar mentor talabaga faqat tayyor yechimlarni bersa, talaba mustaqil qaror qabul qilish o‘rniga ko‘rsatmalarni bajaruvchiga aylanib qoladi.

Bu muammolarni hal etish uchun amaliyotni kasbiy o‘zlikni shakllantirish jarayoni sifatida ko‘rish lozim. D. Beijaard, P. Meijer va N. Verloop (2004) o‘qituvchining kasbiy o‘zligini tugallangan holat emas, balki tajribani doimiy talqin qilish va qayta talqin qilish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Bunday jarayonning mexanizmini D. Kolb (1984) tajriba asosida o‘qitish sikli orqali tushuntiradi: aniq tajriba, uni kuzatish va tahlil qilish, umumlashtirish hamda yangi vaziyatda sinab ko‘rish. Shu nazariy asoslarga tayanib, CLIL elementlarini o‘z ichiga olgan amaliyotni uch bosqichda tashkil etishni taklif qilamiz.

Tayyorlov bosqichi. Talaba maktab o‘quv dasturidagi boshqa fan (masalan, tabiiy fanlar yoki geografiya) mavzusi asosida CLIL elementli dars fragmentini rejalashtiradi. D. Coyle, P. Hood va D. Marsh (2010) taklif etgan 4C modeli bo‘yicha u darsning mazmun, til, tafakkur va madaniyat maqsadlarini aniqlaydi, imkoni bo‘lsa, shu fan o‘qituvchisi bilan maslahatlashadi. Bu bosqichda talaba o‘z tanlovini yozma ravishda asoslab beradi, bu esa kognitiv-nazariy komponentni faollashtiradi.

O‘tkazish bosqichi. Talaba dars fragmentini o‘tkazadi, mentor va guruhdoshlari esa oldindan kelishilgan kuzatuv varaqasi asosida kuzatadi. Kuzatuv baholash uchun emas, balki keyingi muhokama uchun aniq faktlar to‘plashga qaratiladi. Bu bosqich operatsion-amaliy komponentni rivojlantiradi: talaba rejalashtirgan narsasini haqiqiy sinf sharoitida amalga oshirishga va kutilmagan vaziyatlarda qaror qabul qilishga o‘rganadi.

Refleksiya bosqichi. Darsdan so‘ng mentor tayyor xulosa aytishdan oldin talabaning o‘zi darsni tahlil qiladi: nima rejadagidek bo‘ldi, nima o‘zgardi va nima uchun. T. Farrell (2015) ikkinchi til o‘qituvchilari refleksiyasi faqat dars texnikasi bilan cheklanmasdan, o‘qituvchining e’tiqodlari va qadriyatlarigacha yetib borishi kerakligini ta’kidlaydi. Shu sababli refleksiv kundalikda talaba “Men qanday o‘qituvchi bo‘lishni xohlayman?” degan savolga ham qaytib turadi. Bu bosqich refleksiv-baholash va motivatsion-qadriyat komponentlarini rivojlantiradi.

Har bir sikl natijalari kasbiy portfolioda jamlanadi va talabaning amaliyot davomidagi o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Bu bosqichlarni amalga oshirishda amaliyot rahbarlarining o‘rni ham o‘zgaradi. An’anaviy amaliyotda universitet rahbari va maktabdagi mentor talabaning darsini asosan nazorat qiladi va baho qo‘yadi. Taklif etilayotgan yondashuvda esa ular talaba bilan birgalikda darsni tahlil qiluvchi hamkorga aylanadi. Mentor avval savol beradi, so‘ng o‘z fikrini bildiradi; talabaning qarorini darhol to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb baholash o‘rniga, uni asoslab berishni so‘raydi. Universitet rahbari esa amaliyotda yuzaga kelgan vaziyatlarni metodika mashg‘ulotlarida muhokama qilish uchun material sifatida olib qaytadi va shu orqali nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni tiklaydi. Buning uchun mentor va amaliyot rahbarlari bilan CLIL va refleksiv tahlil bo‘yicha qisqa tayyorlov mashg‘ulotlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq. Aks holda talaba bir tomondan mustaqil fikrlashga undalsa, boshqa tomondan faqat ko‘rsatma kutadigan muhitga tushib qoladi va natijada kasbiy-subyektiv pozitsiya rivojlanishi o‘rniga moslashuvchan, passiv xulq shakllanadi.

Xulosa. Pedagogik amaliyot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatga ega. Biroq bu imkoniyat amaliyot nazariya bilan bog‘langan, talabaning mustaqil tanlovi va refleksiyasiga asoslangan holda tashkil etilgandagina ro‘yobga chiqadi. Taklif etilayotgan tayyorlov, o‘tkazish va refleksiya bosqichlari kasbiy-subyektiv pozitsiyaning to‘rtta komponentini – motivatsion-qadriyat, kognitiv-nazariy, operatsion-amaliy va refleksiv-baholash komponentlarini qamrab oladi. Bunda mentorning vazifasi tayyor yechim berish emas, balki talabaning mustaqil fikrlashiga ko‘maklashishdan iborat. Amaliyotni bu tarzda tashkil etishning samaradorligi tadqiqotimizning tajriba-sinov bosqichida o‘rganiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Beijaard, D., Meijer, P. C., & Verloop, N. (2004). Reconsidering research on teachers’ professional identity. Teaching and Teacher Education, 20(2), 107–128. https://doi.org/10.1016/j.tate.2003.07.001
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and language integrated learning. Cambridge University Press.
3. Farrell, T. S. C. (2015). Promoting teacher reflection in second language education: A framework for TESOL professionals. Routledge.
4. Hobson, A. J., Ashby, P., Malderez, A., & Tomlinson, P. D. (2009). Mentoring beginning teachers: What we know and what we don’t. Teaching and Teacher Education, 25(1), 207–216. https://doi.org/10.1016/j.tate.2008.09.001
5. Kolb, D. A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Prentice-Hall.
6. Korthagen, F. A. J., & Kessels, J. P. A. M. (1999). Linking theory and practice: Changing the pedagogy of teacher education. Educational Researcher, 28(4), 4–17. https://doi.org/10.3102/0013189X028004004
7. Lortie, D. C. (1975). Schoolteacher: A sociological study. University of Chicago Press.
8. O‘RQ-637. (2020). O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (23.09.2020).
9. Zeichner, K. (2010). Rethinking the connections between campus courses and field experiences in college- and university-based teacher education. Journal of Teacher Education, 61(1–2), 89–99. https://doi.org/10.1177/0022487109347671

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.
2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil). – 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.